

Yuqori pog'onaga qadam

✘ Yangi dovonlarni zabt etish insonning irodasi, intilishi, izlanuvchanligi, eng muhimi, g'ayrat va shijoatiga bog'liq. Shundagina pog'onama pog'ona o'rlash, yuksak martabalar nasib etadi kishiga. "Magistratura" bo'limining 1-bosqich magistranti Hilola Amanqulova haqida xuddi shu fikrlarni aytish mumkin. U Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga quyilgan nomzodlardan biri edi. Tumandan shahar bosqichiga o'tdi. Undagi g'ayrat va intilish endilikda Respublika bosqichiga chiqib barchamizning quvonchimizga sabab bo'lganini e'tirof etish g'oyat maroqlidir. Tanlovda birinchi o'rinni egallab Respublika ko'rik tanloviga dadil qadam tashlagan Hilolaga ushbu yuqori pog'onada ham omad va muvaffaqiyat nasib bo'lishini tilab qolamiz.

Institut xotin-qizlar qo'mitasining raisi Z.Xafizova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov